



ORIENTAL
UNIVERSITETI

"IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" KAFEDRASI
BOQIYEVA GULBAHOR

"TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR - YOSHLAR NIGOHIDA"
TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA NAMUNALI
ISHTIROKI UCHUN

TASHAKKURNOMA

BILAN TAQDIRLANADI

IMZO:  18 fevral, 2026



ORIENTAL
UNIVERSITETI

"IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" KAFEDRASI
MAHMUDJONOVA SOLIHA

"TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR - YOSHLAR NIGOHIDA"
TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA NAMUNALI
ISHTIROKI UCHUN

TASHAKKURNOMA

BILAN TAQDIRLANADI

IMZO:  18 fevral, 2026

ISLOM DININING PAYDO BO‘LISHI VA UNING MARKAZIY OSIYOGA YOYILISHI

Boqiyeva Gulbahor Axror qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi Sobirov Zuhridin

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinining VII asrda Arabiston yarimorolida paydo bo‘lishi, uning asosiy g‘oyalari hamda Arab xalifaligi davrida keng hududlarga, jumladan Markaziy Osiyoga yoyilish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, Islom dinining Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayoti, ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyoti va madaniyatiga ko‘rsatgan ta‘siri tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar asosida Islom dinining mintaqada mustahkamlanish omillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Islom dini, Qur‘oni Karim, hijrat, Arab halifaligi, Markaziy Osiyo, Movarounnahr, islomiy madaniyat.

Annotation: This article examines the emergence of Islam in the 7th century on the Arabian Peninsula, its main principles, and the process of its spread to vast territories, including Central Asia, during the period of the Arab Caliphate. In addition, the article analyzes the influence of Islam on the social life, spiritual and educational development, and culture of the peoples of Central Asia. Based on historical sources, the factors that contributed to the consolidation of Islam in the region are highlighted.

Keywords: Islam, the Holy Qur‘an, Hijra, Arab Caliphate, Central Asia, Mawarannahr, Islamic culture.

Islom (arabcha: الإسلام, al-‘Islām —“bo‘ysunish”, “itoat etish”) — jahonda keng tarqalgan uch dindan (xristianlik va buddaviylik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“sadoqatli”; ko‘pligi “muslimun”) deb ataladi. [1; B-128]. Islom dini VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida paydo bo‘lgan jahon dinidir. Ushbu dinning asoschisi va payg‘ambari Muhammad (s.a.v) bo‘lib, U kishining tavallud topgan sanalari milodiy 571-yil, qamariy hisobi bo‘yicha Rabi‘-ul avval oyining 12-kuni, dushanbada tavallud topganlar. [1; B-209].

Bu zotning dunyoga kelishlarida bir qancha mo‘jizalar ro‘y bergan: U zot tug‘ilganlarida bir nur paydo bo‘lib, uning nuri Shom diyorini yoritgan, Fors diyorida ma‘jusiy(otashparast)lar sig‘inadigan, ming yillar davomida yonib turgan olov o‘chib qolgan, Mushriklar sig‘inadigan but va sanamlar qulab tushgan, Eron Hukmdori Xusravning hashamatli saroyi qulab vayrona holga yetgan. Sava shahridagi insonlar sig‘inib kelgan ko‘l ham shu kechada qurib qolgan va yana shunga o‘xshash ko‘p voqealar yuz bergan. Payg‘ambarimiz (s.a.v) arablar orasida obro‘li sanalgan Bani Hoshim qabilasida dunyoga kelganlar, nasablari Ibrohim (a.s.) ga borib yetadi. Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislarda shunday marhamat qiladilar:

“Alloh payg‘ambarlik uchun Ibrohimning bolalaridan Ismoilni, Ismoilning avlodlaridan Bani Kinonani, Bani Kinonadan Qurayshni va Qurayshdan Bani Hoshimni, Bani Hoshimdan esa meni tanlab oldi” deb marhamat qilganlar.

Alloh Hazrat Muhammad (s.a.v.)ni ana shunday ulug‘ kishilar pushtida saqlab kelib, Otalari Abdulloh va Onalari Ominadan tug‘ilishlarini iroda qildi. Payg‘ambarimiz tug‘ilganlarida otalari vafot etgan edilar. Muhammad (s.a.v.)ni birinchi bo‘lib, onalari 7 kun emizadilar. So‘ng Muhammad (s.a.v.)ning amakilari Abu Lahabning ozod qilgan cho‘risi Suvayba bir necha kun emizadi. Keyin Bani Sa‘dlik Halima roziallohu anho ikki yil emizish baxtiga muyassar bo‘ladilar. Muhammad (s.a.v.) yoshliklarida qo‘y boqqanlar. Ya‘ni cho‘ponlik qilganlar. O‘spirinlik yoshlaridan to 40 yoshlarigacha tijorat bilan shug‘ullanganlar.

Milodiy 610-yilda Makka shahrida joylashgan Hiro g‘orida Muhammad (s.a.v.)ga ilk vahiy nozil bo‘lishi bilan Islom dini shakllana boshladi. Ilk vahiy tushganda Qur‘oni Karimning Alaq surasi nozil qilingan. Allohning vositachisi bo‘lmish Jabroil alayhissalom Muhammad (s.a.v.)ning huzurlariga kelib:

“O‘qi! Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi!” (Alaq surasi, 1-oyat)

deb amr qilganlar va shu tariqa Qur‘onning oyatlari nozil bo‘la boshlagan. Qur‘oni Karim 23 yil davomida bosqichma–bosqich nozil bo‘lgan. Qur‘oni Karim jami 114 suradan iborat. Undagi oyatlar soni ulamolar hisobiga ko‘ra 6236 ta deb e‘tirof etiladi.

Islom tarixida muhim burilish yasagan voqealardan biri – hijrat hodisasidir. Makkada musulmonlarga nisbatan tazyiq va zulm kuchayib borishi natijasida Muhammad (s.a.v.) va sahobalar Allohning izni bilan Makkadan Madinaga ko‘chishga majbur bo‘ldilar. Ushbu voqea milodiy 622-yilda sodir bo‘lgan bo‘lib, keyinchalik Islom taqvimining boshlanish nuqtasi sifatida qabul qilingan. Hijrat faqatgina geografik ko‘chish emas, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega tarixiy jarayon edi. Madinada musulmonlar mustaqil jamoa sifatida shakllandilar va ilk islomiy jamiyat asoslari yaratildi. Muhammad (s.a.v.) Madinaga kelgach, muhojirlar va ansorlar o‘rtasida birodarlik rishtalarini o‘rnatdilar hamda jamiyat hayotini tartibga soluvchi hujjat – “Madinai munavvara ahdnoma”sini tuzdilar.

Hijrat voqeasi haqida Qur‘oni Karimda ham ishora qilinadi. Jumladan, Tavba surasining 40-oyatida Muhammad (s.a.v.) va u zot bilan birga bo‘lgan sahobaning g‘orda panohtopganlari zikr etiladi. Ushbu oyat hijrat jarayonida Allohning yordami va himoyasi musulmonlar bilan bo‘lganini ko‘rsatadi. Hijratdan so‘ng Madinada islomiy jamiyat shakllandi. Muhammad (s.a.v.) nafaqat diniy rahbar, balki siyosiy va ijtimoiy yetakchi sifatida ham faoliyat olib bordilar. Madina davrida musulmonlar jamoasi kuchayib, Islom dini Arabiston yarimorolining turli hududlariga keng yoyildi. Badr, Uhud va Xandaq kabi janglar, shuningdek, Makkaning fath etilishi Islom tarixida muhim bosqichlar bo‘ldi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hayotlarining so‘nggi yillarida Islom dini deyarli butun Arabiston hududida qaror topdi. Milodiy 632-yilda, hijratning 10-yilida Hajjatul vado (vidolashuv haji) ado etildi. Ushbu haj safarida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) musulmonlarga mashhur vidolashuv xutbasini aytib, ummatga muhim vasiyat va ko‘rsatmalar berdilar. Hijratning 11-yilida, milodiy 632-yil 8-iyun kuni

Payg'ambarimiz (s.a.v.) Madinada vafot etdilar. [1; B-210]. U zotning vafotlari musulmonlar uchun nihoyatda og'ir musibat bo'ldi.

Arab xalifaligi VII asrda Islom dini asosida shakllangan yirik siyosiy-diniy davlat bo'lib, u Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so'ng yuzaga keldi. Muhammad (s.a.v) davrlarida Arabiston yarimorolida yagona diniy jamoa shakllangan bo'lsa, u zotning vafotlaridan keyin musulmon jamiyatiga rahbarlik qilish uchun xalifalik boshqaruv tizimi joriy etildi. "Xalifa" so'zi "o'rinbosar" ma'nosini anglatib, u Muhammad (s.a.v)ning siyosiy va ma'muriy ishlarini davom ettiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritgan.

Dastlabki to'rt xalifa davri "Roshidun xalifaligi" nomi bilan tarixda mashhurdir. Bu davrda islomiy davlat chegaralari keskin kengaydi. Suriya, Iroq, Eron va Misr hududlari fath etildi. Davlat boshqaruvida shuro (maslahat) tamoyili muhim o'rin tutdi. Aynan shu davrda Qur'oni Karim mushaf holida jamlandi va yagona nusxa asosida ko'paytirildi.

661-yildan boshlab hokimiyat Umaviylar xalifaligi qo'liga o'tdi. Ularning poytaxti Damashq shahri bo'ldi. Umaviylar davrida xalifalik kuchli markazlashgan imperiyaga aylandi. Harbiy yurishlar natijasida G'arbda Ispaniyagacha, Sharqda esa Hindiston chegaralarigacha bo'lgan hududlar zabt etildi. Shimoliy Afrika to'liq bo'ysundirildi. Arab tili davlat va rasmiy boshqaruv tili sifatida joriy etildi, moliya va soliq tizimi takomillashtirildi.

750-yilda hokimiyat Abbosiylar xalifaligi qo'liga o'tdi. Poytaxt Bag'dod shahri bo'lib, u qisqa vaqt ichida dunyoning eng yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Abbosiylar davrida tarjima harakati rivojlandi, yunon, fors va hind ilmiy merosi arab tiliga o'girildi. Matematika, tibbiyot, astronomiya, geografiya va falsafa fanlari taraqqiy etdi.

Arab xalifaligining Markaziy Osiyoga kirib kelishi VIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda mintaqqa Movarounnahr va Xuroson nomlari bilan mashhur bo'lib, u yerda turli mahalliy sulolalar va hokimliklar hukmronlik qilgan. Hudud Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgani sababli siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega edi.

Markaziy Osiyoga dastlabki jiddiy yurishlar Umaviylar xalifaligi davrida amalga oshirildi. Xuroson noibi etib tayinlangan Qutayba ibn Muslim 705–715-yillar davomida Movarounnahrda bir necha harbiy yurishlar uyushtirdi. [2; B-409]. Natijada Buxoro, Samarqand, Xorazm va Farg'ona kabi yirik siyosiy va madaniy markazlar bosib olindi. Ayrim hududlarda qarshilik kuchli bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan xalifalik hukmronligi mustahkamlandi.

Dastlab Islom dini mintaqaga harbiy-siyosiy yo'l bilan kirib kelgan bo'lsa-da, uning keng yoyilishi asosan ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi. Arablar savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirdilar, yangi soliq tizimi joriy etdilar va mahalliy zodagonlar bilan kelishuv siyosatini olib bordilar. Islomni qabul qilgan aholiga ayrim soliq yengilliklari berilishi ham dinning tarqalishiga ta'sir ko'rsatdi.

VIII–IX asrlarga kelib, mintaqada Islom dini mustahkam o'rnashdi. Arab xalifaligining Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida mintaqaning diniy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Islom dini asta-sekin mahalliy aholi e'tiqodiga singib, yangi madaniy muhit shakllanishiga zamin yaratdi. VIII–IX

asrlarga kelib Movarounnahr hududi islomiy ilm-fan va madaniyatning muhim markazlaridan biriga aylandi.

Abbosiyalar xalifaligi davrida Bag‘dod bilan ilmiy aloqalar kuchaydi, tarjima va ilmiy tadqiqotlar rivojlandi. Markaziy Osiyo shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz va Xorazmda masjid va madrasalar barpo etildi. Arab yozuvi keng tarqaldi va ilmiy asarlar asosan arab tilida yozila boshlandi.

Bu davrda mintaqadan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqdi. Imom Buxoriy hadis ilmini mukammallashtirib, “Al-Jome‘ as-Sahih” asarini yaratdi. Imom Termiziy hadis va fiqh ilmlariga ulkan hissa qo‘shdi. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, Abu Nasr Forobiy falsafa va mantiq ilmlarini rivojlantirdi. Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino esa tabiiy fanlar va tibbiyot sohasida jahon ilm-faniga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Islomiy madaniyat nafaqat ilm-fan, balki me‘morlik va san‘atda ham o‘z aksini topdi. Masjidlar, maqbaralar va madrasalar qurilishi rivojlandi. Geometrik naqshlar, arabiy yozuv bezaklari (kalligrafiya) keng qo‘llanildi. Shuningdek, shariat qonunlari asosida huquqiy tizim shakllandi. [3; B-33].

Markaziy Osiyoda islomiy madaniyat mahalliy an‘analar bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos sivilizatsion muhitni yuzaga keltirdi. Natijada mintaqada IX–XII asrlarda Sharq uyg‘onish davrining muhim markaziga aylandi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston — tarixiy va ma‘naviy meros sifatida islomiy madaniyatni saqlab kelmoqda. Islom dini mintaqada aholisining asosiy e‘tiqodi bo‘lib qolmoqda hamda u jamiyatning axloqiy qadriyatlari va urf-odatlariga chuqur singib ketgan.

Mustaqillik yillarida, xususan O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohada keng islohotlar amalga oshirildi. Tarixiy masjid va maqbaralar ta‘mirlandi, buyuk allomalar merosi qayta o‘rganildi. Masalan, Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi allomalar merosini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Islom sivilizatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyoda islomiy madaniyat diniy bag‘rikenglik va ma‘rifatparvarlik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Yosh avlodni sog‘lom e‘tiqod, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi ma‘rifiy kurash olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. Islom ensiklopediyasi. // Toshkent, 2004. – 320 b. (yoki Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida: Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 673 b.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1–12-jildlar. // Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005. – (jami ~23 469 b.).
3. Hasanboyev, O‘tkir. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari / O‘. Hasanboyev; mas‘ul muharrirlar K. Komilov, A. Mansurov. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. — 552 b.
4. Ziyouz kutubxonasi veb-sayti materiallari. // www.ziyo.uz

MARKAZIY OSIYOGA NASRONIYLIKNING KIRIB KELISH TARIXI

Mahmudjonova Soliha Mansurjon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Sobirov Zuhridin

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududiga nasroniylik dinining kirib kelish jarayoni, uning tarixiy bosqichlari va mintaqa madaniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda nasroniylikning dastlabki asrlarda Sharq mamlakatlari orqali tarqalishi, ayniqsa Nestorianlik (Sharq cherkovi ta'limoti) oqimi orqali Markaziy Osiyoga kirib kelgani yoritiladi. Maqolada arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda tarixiy tadqiqotlar asosida nasroniylikning O'zbekiston va qo'shni hududlardagi izlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar:

Markaziy Osiyo, nasroniylik, nestorianlik, Buyuk Ipak yo'li, diniy aloqalar, tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar.

Annotation:

This article examines the historical process of the spread of Christianity into Central Asia, its main stages of development, and its influence on the cultural and spiritual life of the region. Particular attention is paid to the role of Nestorianism in transmitting Christian teachings through Persia and along the Silk Road. The study highlights the importance of trade routes and intercultural exchanges in facilitating religious diffusion. Based on written sources and archaeological evidence, the article analyzes the presence and legacy of Christianity in present-day Uzbekistan and neighboring territories.

Keywords:

Central Asia, Christianity, Nestorianism, Silk Road, religious contacts, historical sources, archaeology.

Xristianlik (yunoncha *christos* – «muqaddas yog' surtlangan», «xaloskor») milodning I asrida Falastinda yuzaga kelgan jahon dinlaridan biridir. Mazkur din izdoshlar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turib, Yer yuzi aholisining qariyb 2 milliardiga e'tiqod qiladi.

Xristianlik ta'limotining paydo bo'lishi Iso Masih shaxsi bilan bog'liq. Xususan, unga ko'ra Iso a.s Falastinning Baytlahm (zam. Vifliem) shaharchasida, yahudiy oilasida tug'ilgan. Uning onasi Maryam mo'jizaviy suratda, ya'ni bokira holida homilador bo'ladi. Tug'ilgan go'dakka Iso (yahudiy tilida Yeshua, ya'ni "Tangri najot berdi") deb ism qo'yishadi. Iso a.s o'z sayohatlari davomida ko'plab shogirdlar, ya'ni "havoriylar" (yunoncha "apostol" – "yordamchi") orttiradi, ular uni Masih (yunoncha Xristos, ibroniy tilida Moshiah – "moy surtlangan") deb atay boshlaydilar. Injillarga ko'ra eng ishonchli havoriylar soni 12 ta bo'lgan, ular: Butrus (Petr yoki Simon), Idris (Andrey), Ya'qub (Iakov), Yuhanno (Ioann), Filip, Bartolomey, Matto (Matvey), To'ma (Timoti), Alfey o'g'li Ya'qub (Iakov Alfeev), Simon Vatanparvar, Ya'qub o'g'li Yahudo (Iuda), Kariyotlik Yahudo (Iuda Iskariot). [1; B-116].

III asr oxiri – IV asrning boshlarida imperator Diokletian va u bilan birga davlatni boshqargan Maksimilian davrida cherkovni ta'qib qilish siyosati avjiga chiqadi. E'tiqodi sababli jabrlanganlar avliyolarga aylanib, xotiralari qadrlanadi, buning oqibatida xristianlikning jozibadorligi ortib, u Rim shahrining o'zida ham tez sur'atlarda tarqaladi.

IV asrning oxirida cherkovni xavfli raqib deb bilgan imperator Konstantin, kurashish o'rniga u bilan hamkorlik qilish va davlat manfaatlari maqsadida, u nufuzli ijtimoiy kuch bo'lganligi sababli, undan foydalanishga qaror qiladi. Chunonchi, 311 yilda xristianlik din sifatida rasmiy ravishda tan olindi. Shu asrning oxirida, imperator Konstantin davrida xristianlik davlat muhofazasini ado etuvchi va unga rahnamolik qiluvchi davlat diniga aylandi. Lekin G'arbiy Rim imperiyasining sekin-asta kuchsizlanishi oxir-oqibatda uning yemirilishiga olib keldi. Buning natijasida o'z bo'yniga hukmdor vazifalarini olgan Rim yepiskopining (Papa) qudrati yanada oshdi.

Fanda xristianlik dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi ikki yo'l bilan amalga oshgani e'tirof etiladi. Birinchisi, milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ'ib etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik harakati bo'lsa, ikkinchi yo'l, mintaqaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko'plab ko'chib kelishi orqali amalga oshgan. [1; B-80].

Zamonaviy O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida apostol Andrey Pervozvannyning diniy faoliyati ilk xristianlik tarixi manbalarida qayd etilgani diqqatga sazovor. Buning dalili sifatida bugungi qadar saqlanib qolgan hind xristianlarining "Foma qaydnomalari" va milodiy II asrda tashkil topgan Markaziy Osiyo cherkovi taraqqiyoti haqidagi tarixiy yozma manbalar xizmat qiladi.

Hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Sintszyan–Uyg'ur muxtoriyati (Xitoy) hududida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning xarobalari, freskali ikona yozuvlari reskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar (zandanachi), Injil qissalari tasvirlangan keramikalar, bo'yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari ahamiyatga molik. Undan tashqari minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo'yilgan xochlar topilgan. Yuqoridagilarning aksariyati IV–XIV asrlarga mansub deb topilgan.

Missionerlar faoliyati natijasida 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. [2; B-82]. IV asr boshlarida tashkil etilgan Marv yepiskopligi, V asr boshida mitropoliyaga aylangan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

431 yilda Vizantiyadagi xristianlarning Efes soborida mojaro yuz berdi – nestorean oqimining xristianlari hukmdor din aqidalariga xilof ish qilgan deb e'lon

qilindi. Shuni aytish joizki, nestorianlar – Konstantinopol patriarxi Nestorning izdoshlaridir (V asr boshlarida). Ular Xristosning ilohiy kelib chiqishi haqida gapirib, uning onasi Mariya Xudoni emas, balki insonni dunyoga keltirgan, uning tanasiga Xudo kirib olgan va shu sababli la'natlangan deb hisoblaydilar.

Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarning kirib kelishi XIX asrning 40-yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko'chib kelishi bilan bog'liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo'lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40-yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850 yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi. Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. General-gubernator fon Kaufman "Toshkentda na arxiyereylik, na jandarmeriyaga o'rin yo'q" deb ta'kidlagan. Uning ko'rsatmasiga binoan yepiskop kafedrasini qarorgohi Verniy (1854 yil asos solingan "Verniy" shaharcha, zamonaviy Olma-Ota) shahriga ko'chirilishi kerak edi. "Toshkent va Turkiston" nomini olgan yeparxiya yepiskoplari markazdan tashqariga chiqib boshqarish mantiqsizlik ekanligi va noqulay bo'lganligi bois ko'chishdan bosh tortadi. Imperatorlik davrida Toshkent arxiyereylari kafedraning Toshkentda bo'lishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916 yil oxirida arxiyepiskop Innokentiy (Pustynskiy) harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan. [3; B-46].

Dastlabki cherkovlarning ko'pchiligi oddiy bo'lgan va qo'ng'iroqlari ham bo'lmagan. Rus aholining ko'payishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta Rossiya cherkovlaridan qolishmaydigan cherkovlarning bunyod bo'lishiga olib keldi. Ular orasida Toshkentdagi Svato-Preobrajenskiy (1888 yili qurilgan, 1923 yili buzib tashlangan), Verniy (Olma-Ota)dagi Voznesenskiy (1907 yili qurilgan, 1995 yili qayta tiklangan), Samarqanddagi Svato-Aleksiyevskiy (1911 yili qurilgan, hozirda ochiq va qayta tiklanmoqda) soborlari alohida ajralib turgan.

Markaziy Osiyoga katolik va protestant yo'nalishi vakillarining kirib kelishiga 1879 yil 27 martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga ko'ra birinchi jahon urushida asirga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi turtki bo'ldi. Bu o'z navbatida yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20–30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, 10,1 ming pravoslaviyaga mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub kishilar tashkil etgan. [3; B-57].

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlangan.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan III–IV asrlarda paydo bo'lganligi qayd etilgan. 1890 yilga kelib ularning soni 3839 kishini tashkil etgan. XIX asr oxirlaridan boshlab Echmiadzin Sinodi Turkiston o'lkalarida ibodatxonalar qurishga qaror qilgan. Samarqand cherkovi o'z faoliyatini 1903 yildan e'tiboran boshlagan.

O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijda ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQSHlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlari hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizm yo'nalishlarida bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda. [3; B-75].

O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asr boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning Markaziy Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi. 1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 yili Toshkentda V.A. Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan va hozirgi davrga qadar faoliyati davom etmoqda. [4; B-183].

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi. 1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida

birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida Markaziy Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida Yevangelchi xristian-baptistlar (EXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktabr oyidan esa T. Penkov Butunittifoq EXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930 yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasmiy qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy Markaziy Osiyo Yevangelchi xristian-baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik "Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi" deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida Yevangelchi xristian-baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro-Osiyo EXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to'liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e'tiboran rasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. [4; B-211].

Respublikamizda mavjud bo'lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e'tirof qilingan ta'limotdir. Yevangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi. Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillarida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini "kanalistlar" deb atab kelganlar. [5; B-145].

Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyoda nasroniylik hech qachon dominant din bo'lmagan, lekin ikki muhim davrda chuqur iz qoldirgan:

1. Qadimgi nestorian davri (IV–XIV asrlar) – Ipak yo'li orqali madaniy almashinuvning bir qismi sifatida, mintaqa xristian madaniy merosini (arxeologik yodgorliklar, xochlar, yozuvlar) boyitgan.

2. Yangi davr (XIX asrdan hozirgacha) – Rossiya mustamlakachiligi, keyinchalik migratsiya va missionerlik orqali turli xristian yo'nalishlari (pravoslav, katolik, protestant) paydo bo'lgan va hozir ham faoliyat yuritmoqda.

Maqola nasroniylikning Markaziy Osiyo madaniy va diniy hayotiga ta'sirini arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tarixiy hujjatlar asosida ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shu bilan birga, mintaqada nasroniylik doimo ozchilik dini bo'lib qolganini va asosan boshqa dinlar (zardushtiylik, buddizm, keyinchalik islom) fonida mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. Nasroniylik Markaziy Osiyoda nafaqat diniy, balki madaniy va savdo aloqalarining muhim ko'zgusi bo'lib xizmat qilgan va hozirgi kunda ham mintaqaning diniy xilma-xilligining bir qismi sifatida saqlanib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2002.
2. D. Murotov, M. Alimova, J. Karimov. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent: «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
3. Hasanboyev, O‘tkir. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari / O‘. Hasanboyev; mas'ul muharrirlar K. Komilov, A. Mansurov. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. — 552 b.
4. Krivelev I. **Istoriya religiy.** – M.: 1989.
5. Men’ A. **Istoriya religii.** – M., 1994.s